

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori prof.Sh.S.Sharipov  
29.02.2024 yil

**5112200-Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda xorijiy til (tillar bo'yicha)  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan**

**YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI  
DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika  
Ta'lim yo'nalishi: 5112200-Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda xorijiy til  
(tillar bo'yicha)

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sod buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida NIZOM” hamda 2021-yil 16-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 1963-3 buyrug‘iga asosan ishlab chiqildi.

Mazkur dastur Universitet Kengashining 2024-yil 29-fevraldaggi 7-sonli bayonnomasiga asosan tasdiqlangan.

### **Tuzuvchilar:**

U.Jumanazarov	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani, dotsent, Pedagogika fanlari doktori
X.B.G‘aniyeva	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til kafedrasi mudiri, v/b dots.
D.A.Qurbanova	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til kafedrasi p.f.f.d.(PhD) v/b dots.
O.M.Jalilov	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.f.d.(PhD)

### **Taqrizchilar:**

G` Mirsanov	f.f.d., SamDCHTI professori
Sh.X.Djabborov	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, f.f.f.d.(PhD), dots.

## KIRISH

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturi oliy o'quv yurtlarining: 5112200 - Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashrish chora tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-1875-sonli qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustda 418сон buyrug'i ijrosini ta'minlash hamda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiva texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish va chet tillarni o'qitish borasida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda mazkur dasturda ingliz tilini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish nazarda tutilgan.

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturining maqsad va vazifalari, bakalavriyat bosqichida talabalar o'rgangan tildan bilimini Chet tilini bilish darajasini baholashning ko'p darajali (Multi-level) formati asosida C1 darajaga moslab ishlab chiqilgan yakuniy davlat attestatsiyasi savollarini baholash tartibini o'z ichiga oladi.

## II YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI TARKIBI

Ushbu yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi dasturi orqali bitiruvchi talabalarning ixtisoslik va chet tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari til ko'nikmalarining barcha turlari asosida baholanadi. Mazkur attestatsiya imtihoni asosida bitiruvchi talabalarning 4 ta til ko'nikmalari shuningdek, ingliz tilini o'qitishdagi metodik ko'nikmalarning eggallaganlik hamda tilning nazariy aspektlarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi va 4 bo'limdan tashkil topadi.

Yakuniy attestatsiya sinovi 4 bo'limdan iborat:

**1. Tinglab tushunish ko'nikmasi:** topshiriq autentik audio matnni tinglab tushunishga yo'naltiriladi. Tinglab tushunish 6 ta matn, 35 ta savoldan iborat. Ushbu qism 60 daqiqaga mo'ljallangan ( Multi-Level imtihonlari materiallari asosida).

**2. O'qish ko'nikmasi:** o'qish ko'nikmasi va strategiyalarini tekshirishga mo'ljallangan autentik -o'qish matnlari, 5 qismdan va umumiy 35 ta savoldan iborat. Ushbu qism 60 daqiqaga mo'ljallangan (Multi-Level imtihonlari materiallari asosida)

**3. Yozish ko'nikmasi:** topshiriq yozma muloqotni tekshirishga yo'naltiriladi. Mazkur topshiriqda talabalardan 2 ta yozma ish yozish talab qilinadi. Birinchi topshiriq 150 ta so'zdan tashkil topgan 1 ta rasmiy xat yozish, ikkinchi topshiriq esa 250 ta so'zdan iborat bo'lgan insho yozish so`raladi. Ushbu qism 60 daqiqaga mo'ljallangan.(Multi-Level imtihonlari materiallari asosida)

**4. Gapirish ko'nikmasi:** Gapirish ko'nikmasini baholash ixtisoslik fanlarining o'zlashtirish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan bo'lib , bu nazarot turi intervyu shaklida tashkil etiladi.

1.Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda ingliz tilini o'qitish metodikasi  
2.Organilayotgan til nazariy aspektlari

3.Madaniyatlararo muloqot

4.Tilshunoslik

5.Bolalarning o'zlashtirish darajasini baxolash fanilari asosida tuzilgan 5 ta savoldan iborat.

### **III. HAR BIR TIL KO`NIKMASI BO`YICHA TEST-SINOVLARI TAVSIFI**

#### **1.TINGLAB TUSHUNISH BO'LIMI (LISTENING)**

Ushbu bo'limning maqsadi autentik va yarim autentik audiomatnlarning umumiy mazmunini, ulardagi asosiy fikrlar va detallarni tushunishni, aniq ma'lumot olish, ochiq aytilmagan ma'lumotlarni tushunish ko'nikmalarini tekshirishdir. Tinglab tushunish bo'limida har bir matn ikki martadan eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin matnga oid savollar bilan tanishib chiqish uchun 15-30 soniya vaqt beriladi. Audiomatnlarning umumiy davomiyligi tahminan 45 daqiqani tashkil etadi. Javob varaqasini to'ldirish uchun qo'shimcha 15 daqiqa vaqt belgilanadi.

1-QISM (8 SAVOL) Matn turi: davomiyligi 5-10 soniyali matn, dialogning birinchi qismi. Tekshiriladigan ko'nikmalar: nutqning umumiy mazmunini tushunish. Savollar turi: muqobil javobli test topshiriqlari (savol va 3 ta javob varianti).

2-QISM (6 SAVOL)Matn turi: davomiyligi 2-3 daqiqali ommabop tanish mavzularda monolog. Tekshiriladigan ko'nikmalar: muayyan ma'lumotlar olish uchun tushunish. Savollar turi: bo'shliqlarni to'ldirish (bitta so'z va/yoki raqam).

3-QISM (4 SAVOL)Matn turi: ommabop tanish mavzularda 4 ta qisqa monologlar, har bir monologning davomiyligi 30 soniya. Tekshiriladigan ko'nikmalar: nutqning umumiy mazmunini tushunish. Savollar turi: moslashtirish (6 ta javob variant, ikkitasi ortiqcha).

4-QISM (5 SAVOL)Matn turi: davomiyligi 2-3 daqiqali ommabop tanish mavzularda monolog yoki dialog. Tekshiriladigan ko'nikmalar: muayyan ma'lumotlar olish uchun tushunish.vSavollar turi: moslashtirish (8 ta javob variant, uchtasi ortiqcha).

5-QISM (6 SAVOL)Matn turi: ommabop tanish mavzularda 3 ta qisqa dialoglar, har bir dialogning davomiyligi 60 soniya. Har bir dialog uchun 2 savol.Tekshiriladigan ko'nikmalar: matnni batafsil tushunish, ochiq aytilmagan ma'lumotlarni tushunish. Savollar turi: muqobil javobli test topshiriqlari (savol va 3 ta javob varianti).

6-QISM (6 SAVOL)Matn turi: davomiyligi 3 daqiqali ma'ruza. Tekshiriladigan ko'nikmalar: muayyan ma'lumotlar olish uchun tushunish. Savollar turi: bo'shliqlarni to'ldirish (bitta so'z va/yoki raqam).

#### **2.O'QISH BO'LIMI (READING)**

Ushbu bo'limning maqsadi ommabop, ilmiy-ommabop hamda ilmiy matnlarning umumiy mazmunini, ulardagi asosiy fikrlar va detallarni tushunishni, aniq ma'lumot olish, ochiq aytilmagan ma'lumotlarni tushunish ko'nikmalarini tekshirishdir. Ushbu bo'lim uchun ajratilgan vaqt javob vaqarasini to'ldirish bilan birga 60 daqiqani tashkil

etadi.

1-QISM (6 SAVOL) Matn turi: ommabop materiallar – gazeta, jurnal, internet maqolalari (matn hajmi – 150 so‘z)..Tekshiriladigan ko‘nikmalar: gaplar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni tushunish va yaxlit matn shaklida tasavvur qilish. Savollar turi: bo‘shliqlarni to‘ldirish (bitta so‘z).

2-QISM (8 SAVOL) Matn turi: 8 ta gazeta, jurnal, internet reklama matnlari (matn hajmi – 300 so‘z). Tekshiriladigan ko‘nikmalar: muayyan ma’lumot olish uchun o‘qish.Savollar turi: moslashtirish (10 ta javob variant, ikkitasi ortiqcha).

3-QISM (6 SAVOL) Matn turi: ommabop materiallar – gazeta, jurnal, internet maqolalari (matn hajmi – 600 so‘z). Tekshiriladigan ko‘nikmalar: ommabop matnlardagi asosiy fikrlarni tushunish. Savollar turi: sarlavhalarni paragraflarga moslashtirish (8 ta javob variant, ikkitasi ortiqcha).

4-QISM (9 SAVOL) Matn turi: ommabop materiallar – gazeta, jurnal, internet maqolalari (matn hajmi – 600 so‘z). Tekshiriladigan ko‘nikmalar: matnni batafsil tushunish, matndagi aniq detallarni va ochiq aytilmagan ma’lumotlarni tushunish. Savollar turi: 21-24-savollar – muqobil javobli test topshiriqlari (savol va 4 ta javob varianti). Savollar turi: 25-29-savollar – to‘g‘ri/noto‘g‘ri/berilmagan.

5-QISM (6 SAVOL) Matn turi: ommabop materiallar – gazeta, jurnal, internet maqolalari (matn hajmi – 600 so‘z). Tekshiriladigan ko‘nikmalar: matnni batafsil tushunish, matndagi aniq detallarni va ochiq aytilmagan ma’lumotlarni tushunish. Savollar turi: 30-33-savollar – bo‘shliqlarni to‘ldirish (bitta so‘z va/yoki raqam). Savollar turi: 34-35-savollar – muqobil javobli test topshiriqlari (savol va 4 ta javob varianti).

### **3.YOZISH BO‘LIMI (WRITING)**

Yozma nutq bo‘limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida yozma ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir. Ushbu bo‘lim ikkita topshiriqdan iborat bo‘lib, ajratilgan vaqt javob vaqarasini to‘ldirish bilan birga 60 daqiqani tashkil etadi.

1-TOPSHIRIQ: berilgan vaziyat va tayanch savollar asosida rasmiy xat yozish (kamida 150 so‘z).

2-TOPSHIRIQ: : berilgan muammoli mavzu yuzasidan essay yozish (kamida 250 so‘z).

### **4.GAPIRISH BO‘LIMI (SPEAKING)**

Og‘zaki nutq bo‘limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida og‘zaki tarzda to‘g‘ri va ravon ifodalay olish qibiliyatini tekshirishdir. Ushbu bo‘lim uchun ajratilgan vaqt 20 daqiqani tashkil etadi.

1. 5 ta ixtisoslik fanlari yuzasidan tuzilgan har bir savolga javob talab etiladi.

2. Savollarga tayyorlanish uchun 5 minut vaqt beriladi.

3. Har bir savolga javob berish uchun 3 minutdan jami 15 minut vaqt ajratiladi.

4.Har bir savol maksimal 5 balldan baholanadi.

#### **IV. IXTISOSLIK FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVINI O'TKAZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONI**

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun tuzilgan topshiriqlar Chet tilini bilish darajasini baholashning ko'p darajali (Multi-level) formati asosida ishlab chiqilgan va quyidagicha belgilangan baholash mezonlari bo'yicha baholanadi. Umumiy 100 ball bo'lган yakuniy topshiriqlar bo`limlar bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- tinglab tushunish ko`nikmasi-25 ball
- o'qish-25 ball
- yozuv ko`nikmasi- 25 ball
- gapirish ko`nikmasi-25 ball

**Jami: 100 ball**

Ball	TINGLAB TUSHUNISH BO'LIMI (LISTENING)	O'QISH BO'LIMI (READING)	YOZISH BO'LIMI (WRITING)	GAPIRISH BO'LIMI (SPEAKING)
<b>90- 100 (22- 25)</b>	Murakkab mavzularni tinglab tushuna oladi; Tinglab tushunishni osonlashtirish uchun talaba turli strategiyalarni qo'llay olishi, jumladan, matnning asosiy g'oyasini tushunish, kontekstdagi tayanch so'zlarni anglay oladi. Tinglash kompetensiyasi yuqori darajada bo'ladi. Rasmiy audio va TV ko'rsatuvlarni	Murrakkab mantlarni o'qib tushunadi va mulohaza yurita oladi. Mavzuga doir terminlarni lug'atlarsiz tarjima qila oladi, jumladan iboralarni va qo'shma so'zlarni kontekstdagi ma'nosini to'liq tushunadi. Natijada 35 ta savoldan 30 tasiga to'g'ri javob bera oladi.	Vazifada ko'rsatilgan Xat yozish va insho yozishni barcha qismlari to'liq bajarilgan. Fikrlar to'liq yoritilgan va misollar bilan samarali boyitilgan. Ehtiyojga ko'ra shaxsiy tajribaga asoslangan misollar o'z o'rnida ishlatilgan. Berilgan savolga aloqador yuqori darajadagi akademik so'zlar va iboralar, so'z birikmalar ishlatishiga ko' Yozilgan matnning hajmi talabga mos	Ixtisoslik fanlarini to'liq o'zlashtirgan ,nutqi doimo ravon va tabiiy. Taqdim etilgan 5 ta savolga javobni to'liq misollar bilan aks etira oladi.

	to‘liq tushunadi. Natijada 35 ta savoldan 30 tasiga to‘g’ri javob bera oladi.		kelishi.	
71- 89  (18- 22)	Matnni tushuna oladi va asosiy manosini anglab etadi va radio eshittirishlar va ma’ruza mantlarini eshitib mulohaza yurita oladi. Eshitib tahlil qila oladi va asosiy tushunchani yoritib bera oladi.	Mavzuga doir iboralarni va murakkab gaplarni tarjima qilishda qiyinchilikka duch keladi va berilgan savollarga qisman to‘g’ri javob bera oladi.	Mavzuni yoritishga harakat qilingan, biroq ba’zi joylarda mavzudan tashqari fikrlar berilgan. Ba’zi fikrlar o’rnida ishlatilgan bo’lsada, yetarlicha yoritilmagan yoki misollar bilan yetarlicha boyitilmagan. Matn hajmi belgilangan talabdan kamroq.	Umumiy, ta’lim, kasbiy mavzularda o’zaro fikrlarni bog’lagan holda tilni deyarli xatosiz, ravon ishlata oladi. Tayyorgarlik ko’rmasdan turib, rasmiy va norasmiy rejallashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta’sir ko’rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o’znutqni tuza oladi. Ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirgan va kasbiy faoliyatiga ko‘ra vaziyatdan chiqo oladi. Voqealar va tajribalari haqida gapirganda muhim joylariga urg’u bera oladi,

				tegishli dalil va misollar, o'z nuqtai nazari bilan o'rtoqlasha oladi. vaziyatni his etgan holda To'satdan muloqotga kirisha oladi. Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'znutqni tuza oladi. Ixtisoslik fanlarini o'zlashtirgan va
60-70 (14-18)	Qisqa va sodda audio mantlani tushuna oladi . Kundalik hayotdagi o'zaro muloqatni tushunadi va fikr bildira oladi.Oddiy savollarga qisman javob bera oladi.	So'z boyligi juda chegaralangan. Matnning stilistik(uslubiy) tuzilishi to'g'risidagi bilimi cheklangan Matnni tushunishda e'tiborsizlikka yo'l qo'ygan va savollarga to'liq to'g'ri javob bera olmagan.	Vazifada ko'rsatilgan mavzuni aniq yoritmagan. Fikrlar yuzaki berilgan va misollar aniq emas. Matnning hajmi qo'yilgan talab darajasida emas. Yoritilgan ba'zi fikrlar topshiriq mazmuniga tog'ri kelmaydi. Fikrlar tor doirada berilgan va	Umumiy, ta'lim, kasbiy mavzularda o'zaro fikrlarni bog'lagan holda tilni deyarli xatosiz, ravon ishlata oladi. Tayyorgarlik ko'rmasdan turib, rasmiy va norasmiy vaziyatni his etgan holda To'satdan muloqotga kirisha oladi.

		<p>misollar juda kam berilgan. Matn hajmi qo'yilgan talabdan ancha kam.</p>	<p>Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'znutqni tuza oladi. Ixtisoslik fanlarini kasbiy faoliyatiga ko'ra vaziyatdan chiqqa oladi. Voqealar va tajribalari haqida gapirganda muhim joylariga urg'u bera oladi, tegishli dalil va misollar, o'z nuqtai nazari bilan o'rtoqlasha oladi. o'zlashtirgan va</p>
<b>60 dan past (14 dan past)</b>	Yuqoridagi talabalarga javob bera olmagan holatda mutaxassislik (chet tili) fanidan yakuniy davlat atestatsiyasi sinovidan o'tmagan hisoblanadi.		

### Baholash jadvali

Reading & Listening to'gri javob	Reading & Listening ball	Reading & Listening to'gri javob	Reading & Listening ball	Reading & Listening to'gri javob	Reading & Listening ball
1	0.5	13	6.5	25	16
2	1	14	7	26	17
3	1.5	15	7.5	27	18
4	2	16	8	28	19
5	2.5	17	8.5	29	20
6	3	18	9	30	21
7	3.5	19	10	31	22
8	4	20	11	32	23
9	4.5	21	12	33	24
10	5	22	13	34	25
11	5.5	23	14	35	25
12	6	24	15		

**ESLATMA:** Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lган bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi ballari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtaida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lган muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.



